

**SHAHARLARNING IJTIMOIIY MUAMMOLARI: FARG‘ONA SHAHRI
OQARIQ MFY MISOLIDA****Esonaliyeva Dilrabo***Farg‘ona davlat universiteti**Ijtimoiy ish yo‘nalishi I-bosqich magistranti***Annotatsiya**

Mazkur maqolada Farg‘ona shahri hududidagi Oqariq MFYda mavjud ijtimoiy muammolar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida bandlik, kambag‘allik, migratsiya va infratuzilma bilan bog‘liq muammolar aniqlanib, ularning yechimlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy muammo, mahalla, urbanizatsiya, bandlik, kambag‘allik*

Аннотация

В данной статье комплексно анализируются социальные проблемы, существующие в Окарикском МФЮ города Ферганы. В результате исследования были выявлены проблемы, связанные с занятостью, бедностью, миграцией и инфраструктурой, а также предложены пути их решения.

Ключевые слова: *социальная проблема, район, урбанизация, занятость, бедность*

Annotation

This article comprehensively analyzes the social problems existing in the Okarik makhalla of the city of Ferghana. As a result of the study, problems related to employment, poverty, migration and infrastructure were identified, and ways to solve them were proposed.

Keywords: *social problem, district, urbanization, employment, poverty*

Kirish

Zamonaviy urbanizatsiya sharoitida shaharlarda ijtimoiy muammolar tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, mahalla darajasida bu muammolar aholining kundalik hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shahar muhitidagi ijtimoiy muammolar shakllanishining nazariy asoslari Bronfenbrennning “ekologik tizimlar” modeli, Park va Burgessning shahar ekologiyasi konsepsiyasi hamda zamonaviy “ijtimoiy adolat” paradigmalari bilan izohlanadi. Bu yondashuvlarga ko‘ra, shahar — murakkab ijtimoiy tizim bo‘lib, undagi har bir strukturaviy o‘zgarish aholining turmush tarziga, ijtimoiy munosabatlarga va resurslardan foydalanish imkoniyatlariga bevosita ta‘sir qiladi. Natijada, urbanizatsiya jarayonida ijtimoiy muammolar jamiyatning iqtisodiy, ekologik, demografik va madaniy omillari bilan o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi.

Shu bois, urbanizatsiya jarayonlarini chuqur o‘rganish, uning bosqichlarini tahlil qilish va ijtimoiy muammolar genezisini aniqlash ijtimoiy ish amaliyotida muhim ilmiy

asosga ega. Bu, ayniqsa, tez o‘sayotgan shahar hududlarida — jumladan, Farg‘ona viloyati shaharlarida — ijtimoiy xizmatlarni rejalashtirish va ijtimoiy muammolarni oldini olishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Urbanizatsiya (frans. urbanisation, ing. urbanization, lot. urbanus — shaharga mansub, urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Urbanizatsiya — tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo‘lgan ko‘p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir.¹ Bugungi kunda dunyo aholisining 55% i shahar hududlarida istiqomat qiladi bu ulush 2050 yilga kelib 68% gacha oshishi kutilmoqda. Urbanizatsiya – insoniyat aholisining qishloq joylardan shahar hududlariga bosqichma-bosqich ko‘chishi – dunyo aholisining umumiy o‘shishi bilan birgalikda 2050 yilga borib shahar hududlarida yashovchi aholi soni 2,5 milliard kishiga o‘shishi mumkin. Bu o‘shishning deyarli 90%i Osiyo va Afrikada sodir bo‘lishi taxmin qilinmoqda.² O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan jadal emasligi bir qator omillar bilan bog‘liq. Garchi 2030-yilga kelib urbanizatsiya darajasini 51% dan 60% ga oshirishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, bu yo‘lda ba’zi to‘siqlar mavjud. Buning sabablari urbanizatsiya jarayonida boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, infratuzilmaning yetarlicha samarali ishlamasligi, transport tirbandliklari, internet tezligining pastligi, noqonuniy qurilishlar kabi muammolar hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida mahalla instituti jamiyatni boshqarishning muhim elementi hisoblanadi¹. Shu sababli, mahalla darajasidagi ijtimoiy muammolarni o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: sotsiologik so‘rovnoma, kuzatuv, statistik tahlil.

Tadqiqot davomida hudud aholisi o‘rtasida tanlama asosida so‘rov o‘tkazildi².

Sotsiologlar urbanizatsiyani jamiyat rivojlanishining murakkab va ko‘p qirrali omili sifatida o‘rganadilar. Klassik sotsiologlar Georg Zimmel, Emil Dyurkgeym, Maks Veber va Luis Virt kabi olimlar shahar hayotining inson ruhiyatiga, ijtimoiy munosabatlarga va madaniyatga ta‘sirini chuqur tahlil qilganlar. Georg Zimmel “Metropolis va ruhiy hayot”³ asarida shahar muhitining insonning hissiyoti va shaxsiyatiga ta‘sirini, xususan, shahar aholisida begonalashuv va loqaydlikning rivojlanishini ko‘rsatgan. Emil Dyurkgeym esa urbanizatsiya jamiyatda “mexanik birdamlikdan” “organik birdamlikka” o‘tishga olib kelishini, ijtimoiy aloqa va

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zME, 2005. T. 9. – B. 114

² <https://www.un.org/uk/desa/68-world-population-projected-live-urbanareas-2050-says-un>

³ D. Weinstein. The Sociology of Georg Simmel. New York: Free Press, 1950, pp.409-424

munosabatlarning mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvga asoslanishini ta'kidlagan.⁴ Luis Virt o'zining "Urbanizm hayot tarzi sifatida" nomli maqolasida shahar aholisining soni, zichligi va xilma-xilligi shaxsiy munosabatlarning nomuayyanligi, ijtimoiy tashkilotlarning murakkabligi va ixtisoslashuvning ortib borishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan.⁵

Zamonaviy sotsiologik bilim doirasida Manuel Kastels, Devid Harvi va Saskia Sassen kabi olimlar globalizatsiya⁶, informatsion texnologiyalar⁷ va siyosiy iqtisodiyotning urbanizatsiyaga ta'sirini⁸ o'rganib, shaharlarning global iqtisodiy tizimdagi rolini va undagi ijtimoiy tengsizliklarni tahlil qilganlar. Mazkur maqolada urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy rivojlanishga ta'siri, uning asosiy ijobiy va salbiy jihatlari sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Natijalar

O'rganish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Bandlik muammosi

Hududda ishsizlik darajasi mavjud bo'lib, bu holat aholi daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda³.

2. Kambag'allik

Kam ta'minlangan oilalar ulushi sezilarli bo'lib, ularning ijtimoiy himoyaga ehtiyoji yuqori⁴.

3. Migratsiya

Tashqi mehnat migratsiyasi yoshlar orasida keng tarqalgan⁵.

4. Infratuzilma

Kommunal xizmatlar sifati yetarli darajada emas⁶.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi muammolar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Masalan, ishsizlik kambag'allikni keltirib chiqaradi, migratsiya esa oilaviy muhitga ta'sir qiladi⁷.

Xulosa

Oqariq MFY misolida shahar ijtimoiy muammolari tizimli xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur.

⁴ The Division of Labor In Society. E. Durkheim. Copyright 1933 by The Macmillan Company Fourth Printing, September, 1960.

⁵ Urbanism as a Way of Life. L. Wirth. American Journal of Sociology, Vol. 44, No. 1 (Jul., 1938), pp. 1-24

⁶ The Global City: Introducing a Concept. Saskia Sassen. WINTER/SPRING 2005.VOLUME XI ISSUE 2

⁷ Castells, Manuel(1996). The Rise of the Network Society, The Information Age: Economy, Society and Culture Vol. I. Cambridge, MA; Oxford, UK: Blackwell. ISBN 978-0-631-22140-1.

⁸ Harvey, D., A Brief History of Neoliberalism, Oxford, Oxford University Press, 2005, chapter 5

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mahalla institutini rivojlantirishga oid qarori. – Toshkent, 2022. – 3-bet.
2. Davlat statistika qo'mitasi. Aholi bandligi bo'yicha hisobot. – Toshkent, 2023. – 12-bet.
3. Abduqodirov A. Ijtimoiy siyosat asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 45-bet.
4. Karimova D. Kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari. – Toshkent, 2021. – 27-bet.
5. Xudoyberdiyev S. Migratsiya va uning ijtimoiy oqibatlari. – Toshkent, 2019. – 61-bet.
6. Davlat statistika qo'mitasi. Kommunal xizmatlar holati. – Toshkent, 2023. – 18-bet.
7. To'xtayev B. Urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent, 2020. – 73-bet.